



Yoshlarning kiyinish madaniyati

Berkinov Oybek Toxir o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

oybekberkinov98@gmail.com

Chutboyev Jumanazar Abdimuminovich

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich talabasi

cjumanazar@icloud.com

Annotatsiya: Kiyinish madaniyati va moda, Oliy ta'lim muassasalarida forma masalasi, O'zbekona kiyinish madaniyatini targ'ib qilish, zamonaviy kiyinishda o'zbekona sharm-hayo me'yorlariga amal qilish, milliy an'analarimizni keng targ'ib qilish orqali urf-odat va qadriyatlarimizga xos bo'lmagan kiyinish uslublariga taqlidning oldini olish, yoshlarda milliy kiyinish madaniyatini shakllantirish, oliy ta'lim muassasasida kiyinish odobi va me'yorlariga rioya qilish bo'yicha targ'ibot tadbirlari.

Kalit so'zlar. Kiyinish madaniyati, moda, estetika, forma, odob-axloq, etika-estetika, dunyoqarash, kiyinish, o'zbek milliy kiyimlari.

Abstract: Dressing culture and fashion, the issue of uniforms in higher education institutions, promotion of Uzbek dressing culture, adherence to Uzbek standards of modesty in modern dressing, tradition through wide promotion of our national traditions. - prevention



of imitation of dress styles that are not characteristic of our customs and values, formation of national dress culture among young people, promotion activities on observance of dress code and norms in higher education institutions.

Key words: Dressing culture, fashion, aesthetics, uniform, manners, ethics-aesthetics, outlook, dressing, Uzbek national clothes.

Аннотация: Культура и мода в одежде, вопрос форменной одежды в высших учебных заведениях, пропаганда узбекской культуры одежды, соблюдение узбекских стандартов скромности в современной одежде, традиции через широкую пропаганду наших национальных традиций.- предотвращение подражания стилям одежды, которые являются не свойственными нашим обычаям и ценностям, формирование национальной культуры одежды среди молодежи, пропагандистская деятельность по соблюдению дресс-кода и норм в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Культура одежды, мода, эстетика, униформа, манеры, этика-эстетика, мировоззрение, одевание, узбекская национальная одежда.

Kiyinish madaniyati – insonning tashqi qiyofasi, shuningdek, ma'naviy dunyosi, estetik didi, axloqiy sifatlari va aqliy salohiyatini ifoda etadigan tushuncha. Ko'hna bitiklarda kiyim bilim, did, farosat, uyat kabi insoniy fazilatlar bilan bog'liq holda talqin etilgan. Kiyim – inson madaniy darajasining asosiy belgilaridan biri. Kiyinish madaniyati insonning go'zallik, nafosat, nazokat, odob borasidagi qarashlarini aks ettiradi. Shuning uchun ba'zi xalqlarda "Kiyimiga qarab kutib oladilar", degan naql bor. Kishining kiyinishiga qarab, uning nafaqat ma'naviy-madaniy darajasi, balki moddiy ahvoli, kasbi, mavqei, hatto e'tiqodini ham aniqlash mumkin. O'tmishda ko'pgina mamlakatlarda turli toifa va tabaqa vakillarining o'ziga xos kiyinish usuli belgilab qo'yilgan. Hayot sur'ati tezlashgan, o'zaro muloqotga juda



oz vaqt sarflanayotgan hozirgi zamonda kishi o'zini, o'z aqliy salohiyatini to'liq namoyon etishga imkoniyati cheklangani tufayli ba'zan faqat kiyinish madaniyati orqali jamoatchilikda yaxshi taassurot qoldirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun kiyinish madaniyati bugungi kunda alohida ilmga aylangan. Amaliy kiyimshunoslikda imijni yaratish bilan bog'liq muammolar o'rganiladi. Kiyimga nafaqat qulay, foydali jihatlari, balki o'zgalar bilan muloqotda shaxsning o'zligini namoyon etish nuqtai nazaridan ham yondashiladi. Imij bo'yicha mutaxassislar atrofdagilarda yaxshi taassurot uyg'otishning asosiy vositasi qatorida kiyinish madaniyatini tilga olishlari bejiz emas. Kishi uchun eng yaxshi vizit kartochkasi – uning tashqi qiyofasi, ya'ni kiyimidir. Kiyim-boshning har bir unsuri atrofdagilarda ijobiy yoki salbiy taassurot uyg'otishi mumkin. Madaniyatli, ma'naviyatli inson muloqot chog'ida kiyinish odobiga ham rioya etadi. Kishining qiyofasi, kiyimboshi u haqda faqat yaxshi taassurot qoldirishi kerak. Kiyim odamning kayfiyati va ruhiy holatiga ta'sir etib, uning xatti-harakati, fe'l-atvorini ham o'zgartirishga qodir. Kiyinish madaniyatiga e'tiborsizlik, noto'g'ri tanlangan, tashqi ko'rinishga mos kelmagan ust-bosh kishini noqulay ahvolga solish bilan birga, o'ziga nisbatan ishonchsizlikni ham keltirib chiqarishi mumkin. Kiyinish madaniyatiga rioya etgan kishi o'zligini anglagan odamdir. Kiyinish madaniyati "moda" tushunchasi bilan bog'liq. Har bir davrning o'z modasi bo'ladi. Kishi modaga binoan kiyinar ekan, zamon va makonga, ya'ni o'z davri va jamiyatda e'tirof etilgan urf-odat hamda qoidalarga mosligini namoyish etadi. Moda talablariga qarab kiyinishni aslo uning ketidan quvish, modaparastlikka berilish sifatida tushunmaslik kerak. Aks holda kishi yoshi, gavdasi, xarakteri yoki iqlim, yil fasli va borgan joyiga (teatr, to'y, aza, majlis, xizmat joyi va hokazolar) mos bo'lmagan ust-boshi bilan kulgili ahvolga tushishi mumkin.

Yevropa modasi deb urf bo'lgan bemani kiyimlarni kiyib o'zini bugunning zamonaviy yoshlari deb hisoblaydigan har bir yigitqiz qattiq adashadi va aksincha, ular o'zlarining ma'naviyati, tafakkuri va dunyo qarashi qanchalik sayoz ekanligini "zamonaviy" liboslari



orqali namoyon etishmoqda. Aslida insonning madaniyatga xos kiyinish uslubi uning ma'naviy olami qanchalik boy ekanligini namoyon etuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu o'rinda bir haqiqatni aytish o'rinli deb bilaman. Yigit qizlarimizning kiyinish madaniyatida ota-onalarning alohida o'рни bor. Tanasiga yopishib turuvchi yoki kalta va ochiq kiyimlarni o'z qizlariga olib berayotgan ayrim ota-onalar buning salbiy oqibatlariga olib kelishini bilisharmikan?! Afsuski, ota-onalar orasida qizlarining kiyinishiga befarq qaraydiganlar talaygina. Kiyinish borasida nafaqat qizlarimiz balki yigitlarimiz ham tobora "zamonaviylashib" borishyapti. Har xil bema'ni yozuv va rasmlar tushirilgan futbolka, kalta shim vashippaklarda ko'chani to'ldirib yurishgani ayni haqiqat. Sigaret chekayotgan odamning surati tushirilgan yoki skelet rasmi solingan futbolkalarni kiyishga ishtiyoqmand o'zbek yigitlarimizning bu ishlari o'zbekona madaniyatimizga to'g'ri kelmasligini anglay olishmayapti. Tasavvur qilib ko'ring kalta shim yoki futbolka kiyib olgan ota yoki tor va ochiq libosga burkangan ona o'z farzandiga ibrat bo'lish o'rniga shu muhitda ulg'ayishi uchun zamin yaratayotgandek go'yo.

Kiyinish madaniyati kishining didini bildiradi. Did kishining o'ziga yarashadigan hamda o'zi va o'zgalarga yoqadigan kiyim tanlashda yaqqol ko'rinadi. Chunki inson moda uchun yashamaydi, aksincha, moda inson uchun yaratiladi. Kishining didi kiyim-bosh uslubini tanlash qoidalarini qay darajada bilishiga bog'liq. Birinchi qoida kimlar bilan muloqot qilishi va o'zi haqida qanday taassurot uyg'otmoqchi ekani bilan bog'liq. Kiyinish madaniyati ham san'at, ma'lumki, har qanday odam o'zini, o'zligini namoyish etishga, odamlar qalbiga yo'l topishga harakat qiladi. Masalan, rasmiy uchrashuv yoki muzokara paytida umume'tirof etilgan qoidalarga rioya etish lozim. Tantanabop kiyimni ishchan muloqot paytida kiyish kishining madaniyati haqida salbiy fikr uyg'otishi mumkin. Xuddi shunday, "ko'cha kiyimi"da teatrqa borish ham noto'g'ri. Ikkinchi qoida: kiyimning maqsadga muvofiqligi. Kishi ko'zlangan maqsadga yarasha kiyingan bo'lishi lozim. Uchinchi qoida: tanlangan kiyim-bosh odamning haqiqiy qiyofasiga, ma'naviy dunyosiga mos bo'lishi kerak. Buning



uchun inson o'ziga to'g'ri, xolisona baho bera olishi kerak. Fransuz yozuvchisi Onore de Balzak bu borada quyidagilarni yozgan: "Ziqna boy bo'lib ham, isrofgar kambag'al bo'lib ko'rinish ham bir xilda yomon... O'ta shuhratparast bo'lasizmi yoki o'ta kamtar, siz birlik qonunini buzasiz, buning oqibatida esa, sizning imkoniyatlaringiz bilan tashqi qiyofangiz o'rtasidagi muvozanat buzilad. Respublikamiz iqlimi issiq bo'lganligi bois bizning sharoitda ayollar uchun eng qulay moda - ko'krak burma va pasti yaxlit bichimli "o'zbekcha" ko'ylak hisoblana-di. Buning afzalligi shundaki, issiq avjiga chiqib, kishi terlab turganda ham kiyim badanga yopishib qolmaydi. Shuning uchun ham ko'krak burma ko'ylak hech qachon modadan qolmaydi. Faqat ayrim detallari biroz o'zgartirilib, zamonaviy tus bergan holda yangilanaveradi. Chiroyli atlas, tovor kabi matolar qadimdan o'zbek ayollari sevib kiyadigan milliy matolardir. Qancha-qancha zamonlar o'tib ketsa ham, bu matolardan o'z davriga moslab yashtirib, xoh o'zbekcha, xoh yevropacha tikilgan kiyimlar hamisha modadadir. Qaddi-qomati kelishgan ayollarga moda jumalidagi modellarning har biri to'g'ri kelishi mumkin. To'ladan kelgan ayollarga belning past qismidan ulangan va keng etak bo'lib tushgan ko'ylaklar kiyish tavsiya etilmaydi. O'zg'in ayollar esa tor badanga yopishib turadigan ko'ylaklar kiyimliklari kerak. Bo'yni uzun ayollar ko'proq yelkalik ko'ylak kiyganlari ma'qul. Bo'yni kalta ayollarga tik yoqali va bo'yin atrofidan o'yilgan ko'ylaklar yarashmaydi. Kiyimning rangi, rasmlari, guli ham mos bo'lishi kerak. Ayollar ko'pincha kiyimlar rangini o'zlarining ko'z, soch va teri ranglariga moslab oladilar. Katak-katak va yo'l-yo'l matolarni birga kiyish tavsiya etilmaydi. Xo'sh, aslida ham «moda» yoshlarimizni buzayaptimi? Ularning milliy an'analarimizga xos kiyinishlariga nima to'sqinlik qilayapti? Yoki modani taqiqlash kerakmi? Umuman, moda tushunchasi nima? Ularning tashabbuskorlari kim? Kiyinish madaniyati o'zgarishi yoki buzilishiga faqat yangilikka o'ch yoshlar sababchimi...? Libos – inson ziynati. Davrlar, zamonlar yangilangani sari liboslar o'zgarib boradi. Bir-biridan rang-barang, uzun-kalta, tor-keng, dabdabali-ko'rimsiz, qimmat-arzon liboslar. Ko'pchilik uchun bu liboslarning yarashgani, o'ziga munosibligi, yoshiga, qomatiga,



kiyadigan davrasiga to'g'ri kelish-kelmasligi muhim emas. Yangi chiqqan narsa, albatta, kiyilishi kerak, tamom. «Moda»ning talabi shu.

O'zbek dizaynerlari sifatli va bejirim kiyimlarni taklif etmas ekan, farzandlarimiz "yirtiq" kiyimlarga oshno bo'lib qolaveradi. Yoshlar ongli ravishda buni o'zlari inkor etmas ekan, barcha sa'y-harakatlarimiz besamarbo'lib qolishi hech gap emas. Kiyinish madaniyatini yo'lga qo'yish va samaraga erishish uchun esa, birinchi navbatda, o'zbek modasi rivojlanishi va taraqqiy etishi kerak. Hozirgi kunda Oliy ta'lim dargohlarida ham kiyinish madaniyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari mamlakat kelajagi uchun kadrlar yetkazib beruvchi maskanlardir. Ulardagi tartib-qoida tabiiyki, bu kadrlar sifatiga qaysidir ma'noda birinchi darajada ta'sir qiladi. OTMda kiyinish madaniyati ana shu axloq qoidalarining ajralmas qismidir. Hukm qilib aytganda, juda qat'iy bo'lmasa-da, ta'lim tizimi uchun forma kerak. Forma, tom ma'noda forma talabalar o'rtasida o'zaro "tenglik"ni ushlab turuvchi asosiy vosita deb hisoblanadi. Tasavvur qilib ko'raylik, agar forma bo'lmasa, hamma xohlagan kiyimida kelsa, bu avvalo, madaniyatga ham ta'sir ko'satmay qolmaydi. O'sha siyqasi chiqqan (ammo haqiqatga ancha yaqin) gaplar –qizlarning tor va kalta kiyimlari-yu, o'g'il bolalarning har xil futbolka yoki shortiklarda auditoriyalarga kirib kelishi –bu, anchagina achinarli holatga olib keluvchi asosiy sabab bo'lishi aniq. Forma tartib belgisi bo'lganligi sababli talabalarga ular oliy o'quv yurti talabasi ekanligini eslatib turadi va ularni ma'lum darajada tartibga keltiradi. Ya'ni, formabo'lmasa, hamma har xil kiyinishga harakat qiladi va bu tabaqalanishni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ammo forma uning bilimini yoki o'qishdagi o'rnini belgilab bermasligi lozim. Ko'p hollarda formasi yo'q talabalar darsda ko'p tanqidga duchor bo'ladi, bu esa talabaning o'sha kungi motivatsiyasi va psixologiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Hozirgi kunda jahon standartlaridagi tajribani o'rganayotgan ekanmiz, chet eldagi forma borasidagi tartib-qoidalarni ham o'rganib, bu tajribani ham inobatga olish lozim. Qachonki, eng oddiy tuyulgan kiyinish masalasiga ham o'z milliy qadriyatlarimiz, tarbiya va e'tiqodimizdan kelib chiqib



yondoshsak, madaniyatlararo arosatda qolmaymiz. Saroymulxonimning liboslaridan andoza olgan ispan elchilari haqidagi hikoyalarni eslab maqtanish bilan chegaralanmaymiz. Milliy libos faqat atlas va beqasam emas, balki yoshiga, jamiyatdagi o'rniga, kasbiga mos, qaraganda kishi ko'zini olib qochmaydigan bo'ladi. Kiyinish madaniyati borasida buyuk mutaffakkir va allomalar ham o'z asarlarida turli firka-mulohazalarni bayon etishgan. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy "Mahbub ul-Qulub" asarida keltirilgan jumlar misol tariqasida keltirildi. Shuning uchun har bir farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazayotgan oilalarning o'z farzandining tarbiyasi va kiyinishga bo'lgan e'tibori muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan hisoblanishi

Xullas, kiyinish madaniyati insonning ma'naviy dunyosi va haqiqiy qadr-qimmatini uning modaga mos va qimmatbaho kiyinishida emas, avvalo, orasta, toza, tartibli, o'ziga yarashadigan kiyinishida namoyon bo'ladi. Zamon bilan hamnafas yashash lozim, lekin, nufuzli oliy ta'lim dargohining talabasi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, odob-axloq qoidasiga binoan kiyinishi va belgilab qo'yilgan tartibga rioya qilishi lozim. Gap kiyinish haqida ketar ekan, unga allaqachon odamlarning me'dasiga tekkan mavzu emas, balki tanamizni issiq-sovuqdan asrovchi, shu bilan birga kimning kim ekanligini ko'rsatuvchi vosita sifatida qarash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova Libos tarixi
2. Avloniy A., Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent, 1992.
3. Jumaboyev yil, O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan, Toshkent, 1997.
4. Yusupov etika, Inson kamolotining ma'naviy asoslari, Toshkent, 1998.
5. Zagritdinova F., Nekotorne problemn biomeditsinskoy etiki, Toshkent, 2005.
6. <https://uzhurriyat.uz>2.<https://saviya.uz>